Biz san'at ahlini qovontirgan jihatlardan yana biri shu bo'ldiki, mahallalarga tashrif buyurganimizda xalqimiz naqadar san'atni sevishimi, qadrashini, milliy qadriyatimizni, an'analarimizni hurmat qilishlarini ko'rib, benihoya qondik. Bu madaniy-ma'rifiy kechalar doirasida o'tkazilayotgan tadbirlar bizni yanada ilhomlantirib, xalqimizga xizmat qilishga, ularning quvonchiga quvonch ulashishimizga, mahallalar ahillarini milliy qadriyatimizga yanada mehrini oshirishimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda aytish lozimki, so'ngi yillarda davlatimiz rahbari boschchiligidagi mamlakatimizda aholi farovonligini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlarda amalga oshirilmoqda. Mana shunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, bayramona kechalarни muntazam o'tkazish orqali mamlakatimizdagi samarali islohotlarning mazmun-mohiyati xalqimizga yetkaziladi, fuqarolar qalbida bugungi kuminigiza shukronalik va ertangi kunga bo'lgan ishonch tuyg'ularini yanada oshirishga erishiladi.

– Mahallalarimizda qaror topgan ijtimoiy-ma'naviy muhit yoshlarimizni ota-bobolarimiz an'analariga, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda, – deydi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'idoshev. – Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yuksak islohotlar, milliy madaniyatimizni, qadriyatimizni asrab-avaylashga qaratayotgan ulkan e'tibor o'z samarasini bermoqda. Mana shunday tashkil etayotgan tadbirlarimizda aholi katta qiziqish bildirayotgani ko'ksimizni faxru iftixorga to'ldirmoqda. Bunday hurmat va ehtirom institutning faol ijdoyi xonandalarga cheksiz minnatdorchiligini bildirishdi.



lozim ekanligidan dalolat beradi. Bu kabi tadbirlar xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirib, mahallalarimizda oilalar ahilligini ta'minlab, ko'tarinki ruh bag'ishlamoqda.

Shu o'rinda aytish lozimki, inson hayotda o'z o'rnini topishida u yashaydigan muhit, atrofdagi insonlarning ta'siri katta bo'ladi. Masalan, biz Ma'murjon Uzoqov, Faxreddin Umarov, Tavakkal Qodirov kabi katta hofizlar ashulalarini tinglab katta bo'lganmiz. Ular xalqqa tanilib, mashhur bo'lgan paytlar edi. Hozirgidek qo'l telefonlari, magnitonfonlar yo'q edi. Kichkinagini radiomizdan qaysi mashhur qo'shiq yangrasa, o'shani o'rganib olardim. Hech esimdan chiqmaydi. Bir gal mahallamizdagi to'ya mashhur hofiz Jo'raxon Sultonov keldi. San'atkorlar oldiga yaqin borib, avyon ustuniga suyanib, berilib ashula eshitayotganimni ko'rgan hofiz to'satdan oldiga chaqirdi. "Ha o'g'lim, nega sen do'stlaring bilan o'ynamasdan bu yerda turibsan?", dedilar. "Men ashula eshitayapman", dedim hayajonlanib. O'shanda ustoz san'attor "Katta hofiz bo'lgan", deb duo qilgandilar. Demak, ustozlar bergen duosi bilan mana shunday nelazariq tushgan bo'lsak ajab emas.

Milliyy misiqalarimiz inson ruhiyatiga, ma'naviyatiga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi vositadir. Ular insonni ezzulikka, yaxshiliklari sari intilishiga hamda falsafiy mushohadaga undaydi. Xalqimizning azaldan milliy misiqalarimizga qiziqishi baland bo'lib, qadimdan shahar va qishloqlarda baxshilar, hofizlar aholini ma'naviy kamolotini shakllantirishga xizmat qilib, to'yarda, bazmarda, bayramu sayillarda san'atga bo'lgan fidoyiliginamoyon etib, mehr qozonganlar.

"Mahallada duv-duv gap" loyihasi doirasidagi bu kabi tadbir Toshkent shahri mahallalarida istiqomat qiluvchi mahalla ahillarini ko'nglida cheksiz g'urur va iftixon, ahillik, o'zaro mehr-oqibat tuyg'ularini mujassam etishida muhim omil bo'lmoxda. Bu kabi tadbirlar nafaqat poytaxtimiz aholisini, balki teleekranlar orqali efsira uzatilib, butun respublikamiz aholisini ham xushnum etmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur tadbirlarning yoshlarni milliy qadriyatlarimiz, tarixiy-ma'naviy merosimizga hurmat va sadoga ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlariga ko'maklashish borasidagi hissasi juda katta bo'lmoxda.

Tadbir davomida mahalla hududida joylashgan ta'limgargohlarining iqtidorli qo'shiqlari ham tomoshabinlarda yaxshi taussurot qoldirdi. Bu tadbir yig'ilganlarning barchasiga ajib bir xushnudlik, o'zgacha bir zavqu shavq bag'ishladi. Tadbirda yangragan kuy-qo'shiqlar, ajib taronalar mahalla ahlini, ishtirokchilarni qalbiga surur bag'ishladi.

Men ko'p mamlakatlarda bo'lganman, lekin bizning xalq kabi san'atkorga mehri baland xalq hech qayerda yo'q. Mana shu xalq duosi bilan shu vaqtgacha ijod qilib kelayapman.

Bunday tadbirlarimiz davomida yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlar, aholi uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlar, olis moziyda yashab o'tgan ota-bobolarimizning jahon fani va madaniyatiga qo'shgan hissalar, buyuk ajododlarimizga munosib avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish, halol mehnat qilish, bilim olish borasida muhim fikrlar aytildi. Diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma'naviy merosi sifatida qadrilayotgan she'r va g'azallarini qo'shiq qilib iyo etilayotgani ham o'z navbatida, mahalla ahllining milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmatini, e'tiborini yanada oshirishga xizmat qiladi, desak mubolog'a bo'lmaydi.

Darvoqe, estrada xonandalari, institut professor-o'qituvchilari, talabalar tomonidan aytigan, milliyligimiz, ma'naviyatimiz tarannum etilgan mumtoz ashulalar tadbir ishtirokchilariga xush kayfiyat ulashdi. Xorazm yo'nalishida yangragan navolar yig'ilganlarning raqsga chorlab, mahalla ahli qalbiga cheksiz xursandchilik olib kirdi. Institutning iqtidorli talabalarining xalqimizning taniqli aktyorlari, xonandalari, qiziqchilarining ovozlariga qilgan taqlidlari kishilarni behad quvontirdi.

Mahalla vakillari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutidan tashrif buyurgan mehmonlarga hamda el ardog'idagi xonandalarga cheksiz minnatdorchiligini bildirishdi.

**Kayrulla LUTFULLAYEV,  
O'zbekiston xalq artisti, professor**

## "ILHAQ" – matonat madhiyasi

2 – Aytingchi, "Ilhaq" filmi va unda aynan Zulfiya Zokirovaning qismati orqali "II Jahon urushi" yillarida og'ir turmushga, ayriliq azobiga, farzand dog'iga duchor bo'lgan o'zbek onalarining qismatini film qilishningizga nima turki bo'lgan?

– Avvalambor, bu filmning tashabbusi va g'oyasi Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga tegishli ekanligi hech kimga sir emas. Hattoki, buni filmning boshlanish titrlarida ko'rsatib o'tganmiz. Qolaversa, men o'zim ham Zulfiya Zokirova tug'ilib o'sgan Xonobod qishlog'da tug'ulib o'sdim. Boz ustiga men tahsil oлган maktab ham Z. Zokirova nomi bilan yuritiladi. Men bolaligimdan shu aynolning taqdirlini, boshiga tushgan fojalarini, beshta bolasi urushdan qaytmaganini ota bobolarimizdan eshitib katta bo'ldim. Prezidentimiz 2019-yil 9-may g'alabaming 74 yilligida Toshkent viloyatida yashab o'tgan Zulfiya aya bag'ishlangan yodgorlik majmuasi o'rnatilishi va uni matonat madhiyasi deya nomlanishini eshitib, anchadan buyon o'ylab yurganim – ayaning hayotiga bag'ishlangan film yaratish fursati kelganini anglab yetdim. Yeng shimarib ishga kirishdik. Ancha izlanishning ijodiy mevsi bo'lib, "Ilhaq" filmi dunyoga keldi.

– Juhongir aka, eshitishimizga qaraganda, "Ilhaq" filmi qo'shni davlatlarda ham, Belarusiyadagi xalqaro kinofestivalda ham juda yaxshi kutib olingan ekan. Bevosita jarayonda ishtirok etgan mutaxassis va muxlislarning taassurotlari bilan o'rtoqlashsangiz?

– Bilasizmi, Belarusiyada biz umumhisobda "Ilhaq" filmining uchta namoyishini o'tkazdik. Birinchi premyeramiz Gomel shahrida bo'lib o'tdi. Undan so'ng Vitebsk bu ikki premyera belarus xalqi, yoshlari, kino muxlislari uchun tashkil qilindi. Biz ijodkorlar bilan taqdimotga ketar ekanmiz, ochig'i, bizda biroz hadik bor edi. Chunki bu haqiqiy o'zbekning dardini, o'zbekona turmushni, o'zbekcha urf-odatlar talqinini Belarus tomoshabini qanday qabul qiladi, degan savol barchamizni o'ylantirardi. Ammo, film tugab, zalda chiroqlar yonganidan so'ng o'tirgan tomoshabinlar yoshidan qat'iy nazar, ko'zlarini jiqla yosha to'lib, bosh rol ijrochisi O'zbekiston xalq artisti Dilorom Karimovani bag'riga bosib, rahmatlar aytdi. Hattoki, biz soatlab muxlislar qurshovidan chiqolmagan vaqtlarimiz bo'ldi. Men aynan o'sha yerda D.Karimovaga "ona", "meni onamga o'xshaysan" deb murojaat qilgan qarayalarini ko'rdim. Markaziy kanallarda namoyish qilinan "Mening onam o'g'illarini urushda yo'qotib umri bo'zlab o'tdi, senda men onamni ko'zlarini ko'rdim, sen meni tug'gan omamsan" deb, yig'lab intervyyular bergan ayollar ham ayan o'sha shaharlardan edi. Men haqiqatdan shu ikki premyerada hayratga tushdim. Demak, urush bir bizning emas butun basharning, insoniyatning fojiasi ekan. Ona esa barcha millat-u elat uchun umuminsoniy qadriyat ekan, degan xulosaga keldim.

Eng asosiy 3-premyeramiz rasmiy namoyish bo'ldi. Bunda hakamlar hay'ati ham bor, tomoshabinlar ham qatnashdi. Endi, tomoshabinlar ham oddiy tomoshabinlar emas edi. Ularning orasida 40 dan ortiq festivalda qatnashish uchun kelgan delegatsiyalar, Belarusiyalik kinoshunoslar, rejissorlar barcha mutaxassislar yig'lishgandi. Bular endi filmni tomoshabin singari emotional emas, professional nuqtayi nazardan baholar edi. Shu uchun meni ham hayajon, ham mas'uliyat tuyg'usi qurshab olgandi. Bizni avvalgi ijodiy mas'uliyatimizga endi, milliy mas'uliyat ham qo'shilgan edi. Chunki xalqaro maydonda siz filmingizni taqdim qilar ekansiz, faqt o'z ijodingizni emas, butun boshli davlatiningizni taqdim etasiz. Shu yerda butun o'zbek kinosiga baho berishadi. Vaqt o'tgani sari bizni ana shu fikr ko'proq o'ylantira boshladи. Men ochilish marosimida bir gapni aytgan edim, ya'ni, qaysidir millatni bilmoxchi bo'lsang, u millatni onasiga bo'lgan munosabatni bil, hech qaysi millat onasiga bo'lgan munosabatdan ortiq narsa emas. Men bugun sizlarga o'zbek onasi haqidagi, o'zbekni onasiga bo'lgan munosabat haqidagi filmni olib keldim, degan so'zidan so'ng namoyish boshlandi. Namoyishdan so'ng gruzin delegatsiyasi a'zosi aytidiki, "sening aytgan so'zlarining bir umr esimizda qoldi. Endi, men o'zbek millatini o'z xalqimidan kam sevmayman" degan so'zlarni izhor qilishdi. Namoyish juda ko'tarinki ruhda o'tdi. Lekin, menda baribir hadik bor edi. Sababi, Xitoydan bir necha tanlovlardan g'olib bo'lgan rejissorlari qatnashayotganini ko'rdik. Fransiyadan tashrif buyurganlar bor, Gollandiyadagi tashrif buyurganlar bor, hattoki, mashhur Asqar Farhodiy "Qahramon" filmi bilan qatnashayotgandi. Ochig'i, bunday nufuzli tanlovdan ushu mukofotlarni qo'lgan kiritishimiz kutilmagan sovg'a bo'ldi.

– Filmda ona obrazini har tamonlama to'lagloni oshib bergan bosh rol ijrochisi "O'zbekiston xalq artisti" Dilorom Karimovani bir ko'rishdayoq Zulfiya aya obraziga taklif qilganmisiz? Yoki kasting jarayoni ham bo'lganmi?

– Albatta, kasting jarayoni ikki oy davom etgan. Vaholanki, bosh rollar balki, har bir rol uchun sinchiklab aktyor va aktirisalarni ko'zdan kechirganimiz. Bilsangiz, filmda kar, soqov pochtachi Chori obrazi bor. Shuning o'ziga 15 ga yaqin aktyorni sinovdan o'tkazganmiz. O'g'illar va kelinlar obrazi uchun ham xuddi shunday foto va fidiносinovlar bo'lgan. Ayniqsa, bosh rollarda xato qilmasligim kerakligini yaxshi bilardim. Bi aynan siz aytganingizdek, Zulfiya aya obrazi va rais rollari edi.

Rais siyosini gavdalantirish uchun O'zbekistonda xizmat qilgan artist M.Matjonov, B.Xolmirzayev, M.Otajonov va T.Saidovlar proba topshirishdi. Ancha bahs va munozaralardan so'ng biz T.Saidovda to'xtaldi. Zulfiya aya obrazini talqin qilish uchun ham umumum hisobda 12 ta har biri xalqimizni e'tirofidagi aktirisalarni jaib qilganmiz. Bir to'xtama kelishga biroz o'yanibroq turganimda ustoz yozuvchimiz X.Sultonov va O'zbek kinomatografiya direktori birinchi o'rincbosari Sh. Rizayevning tasviysi bilan D.Karimovani foto va video sinovdan o'tkazish jarayonida bo'rol Dilorom opanaki ekanligini angladim. Muxlislar va mutaxassislarining e'tirofi tanlovimiz xato bo'lmaganini yaqqol ko'rsatib turibdi. Basharti, ustozlarimizning bir gapi bor, filmning 50 foiz muvaffaqiyati ssenariyida. Qolgan 50 foiz esa rollarni o'z egasiga topshirishingda, deydilar.

– Bilamizki, "Ilhaq" sizning birinchi tarixiy filmining emas, bundan avval "Islamxo'ja" tarixiy, badiiy, publististik filmini suratga olgan edingiz. Ijtimoiy tarmoqlar tarqatgan ma'lumotlarga qaraganda yana yangi tarixiy film ustida ish boshlash arafasida turgan ekansiz. Kelgusida tomoshabinlarga qanday kino aslar taqdim etish niyatidasiz?

– Hozir biz ijodiy guruhimiz bilan 17 asrda Samarqand hokimi bo'lgan Yangalto'sh Bahodir haqidagi badiiy film olish uchun juda katta tayyorgarlik jarayonini boshlab yuborganmiz. Bu ham tarixiy film bo'lib, chiroyli talqinlarga, betakror ijrolarga va albatta, esda qolarli obrazlarga boy bo'lishi uchun imkon qadar harakat qilamiz. Kinoasar O'zbekiston kinomatografiya agentligi va Samarqand viloyat hokimligi hamkorligida suratga olinishi ko'zda tutilayapti. Bundan tashqari, 1916-yilda bo'lib o'tgan "Jizzax qo'zg'oloni" haqida hikoya qiluvchi "Bo'ysunmas" nomli tarixiy filmni suratga olishdek xayrli niyatimiz ham yo'q emas.



# SHUHRAT ABBOSOV – BUYUK REJISSOR, MOHIR PEDAGOG


Milliy kinematografiyamiz darg'asi, mohir pedagog, serqirra ijodkor va buyuk-oddii Shuhrat Abbosov haqidagi xotiralarimni sizlar bilan o'rtoqlashgim keldi. Ustoz agar hayot bo'lganlarida 16-yanvarda o'zlarining tabarruk 90 yoshini qarshilayotgan bo'lardilar...

Yaqin o'tmishda ustoz-pedagoglar uchun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining talabalar turar joyida kechki navbatchilik joriy etilgan edi. Dekanatdan telefon qilishib, ertaga sizning navbatchiligidiz, deb aytishdi. Men shu paytgacha yotoqxonada 2 – 3 marotoba navbatchilik qilgan bo'lsam ham, ochig'i, o'zimning guruhimdag'i talabalar bilan gaplashib, bir ikkita xonalarni aylangandek bo'lib uyg'a qaytib ketardim. Bu safar ham shunday bo'lmasligi uchun talabalar bilan qandyadir ijodiy uchrashuv yoki suhbata qilgim keldi. Professional teatrda biron ta'niш aktyor bilan gaplashib, ijodiy uchrashuv o'tkaszammi deb o'ylanib qoldim. Keyin xayolimga birdan ustoz Shuhrat Abbosov keldi. U kishi bilan institutda qilgan suhbatlarimizni (Gohida ataylab tushlikka chiqayotganda yoki bo'sh o'tirganlarida yonlariiga borib o'zimni qiziqitqangan savollarga javob olishga oshiqardim) talabalar bilan ham o'rtoqlashgim keldi. Ikkilanmay u kishiga qo'ng'iroq qildim va ertaga kech soat 19:00 ga ijodiy uchrashuv o'tkazish niyatim borligini aytdim.

U kishi hech ikkilanmay "xo'p, jonim, rozman" dedilar. Keyin "buyuklar oddiy bo'ladi" deb bekorga aytishmaganda, deb o'ylanib qoldim. Sababi, ba'zi katta ijodkor yoki domlalarimiz ancha-munchaga o'ziga yaqinlashtiravermaydi, hayiqasan kishi. Xullas, ertsasiga o'tkazadigan ijodiy uchrashuvimiza tayyorgarlik ko'rishni boshladim. Dastlab, institutni kiraverishinga, o'quv binosiga, yotoqxonaga e'lon yozdirdim. E'ltonni "Falon sanada O'zbekiston xalq artisti, professor Shuhrat Abbosov bilan ijodiy uchrashuv o'tkaziladi. Mavzu: "Mahallada duv-duv gap" filmining yaratilish tarixi" deb nomladim. Men bilardimki, bu film nafaqat keksalarimizning, balki, ko'pchilik yoshlarimizning ham sevimli filmi edi. Kutganimdek, uchrashuvga ko'plab talabalarimiz yig'ildi. Uchrashuvimiz savol-javob tarzida o'tishini rejalashtirgan edik. Lekin mavzumizdan kelib chiqib ustozning o'zlarini hech qanday savollarga o'rinn qoldirmay hikoyalarini boshladilar.

Men 1931-yilda Farg'onan viloyatining Qo'qon shahrida tug'ilganman. Rahmatli dadam 35 yoshlarida o'tib ketgan, o'shanda men 11 yoshli bola edim. O'sha paytda ko'rgan qiyinchiliklarim meni kurashlarda toblagan deb o'yalyaman. Hayotdagi ancha-muncha ikir-chikirkalar menga ta'sir qilmaydi. Hozir ham hol-ahvol so'ranganlarga "mixdekm'an" deb javob beraman. Odamzotning oldiga qo'yan maqsadi bo'lmasa, o'sha maqsad yo'lida hech narsadan og'ishmay intilmasa bo'lmaydi. Men ham yoshlik paytlarim g'o'rlik qilib qimorniyam o'ynaganman, bezorlikniyam qilganman, xullas, yetimlik ko'chasining har bir burchagiga kirib chiqqanman. Yomon yo'llarga kirib ketmasin deb onam rahmatli 15 yoshimda Toshkentga-xolamnikiga yuborgan. Xolam esa o'sha paytlari meditsina texnikumi direktoriga qo'shni turardi. Yalini-byolvorib meni o'sha texnikunga o'qishga kirdiz qo'yanlar. Men esa o'qishda nuqul "2" baho olardim. Menga faqat texnikumdag'i "drama to'garagi" yozqardi xolos. Oxiri texnikumni tashlab ketishimga to'g'ri kelgan. "Drama to'garagi" sahnasida "Abybsiz aybdorlar" spektaklida piyonista rolini o'ynaganimni ko'rgan hamyurtim, mashhur aktyor Hamza Umarov meni san'at institutiga yetaklab olib borgan. U yerda meni "Rejissura" yo'naliishi bo'yicha o'qishga olishdi. Aslida aktyor bo'lishni orzu qilgan edim. Imtihindona o'tirgan Radun domla "Siz yaxshi aktyor ekansiz. Rejissorlikka o'qing, aktyorlik ham qilaversiz" – degandilar. O'qishni bitirgach, 2 yil Yangiyo' shahar teatrinda bosh rejissor bo'lib ishladim, keyin esa 25-27 yoshimda Oliy rejissorlik kursida o'qish uchun Moskvaga yo'l oldim. U yerga ham baxtli tasodif tuyfaly borib qolganman. Bir kuni Toshkentda ko'chada ketayotsam, taniqli kinodramaturg Sobir Muhammedov to'xtatib, kinoda savodingiz yaxshi, Moskvada Oliy rejissorlik kursi ochilar ekan. Sizni yuborsak, baxtingizni sinab ko'rasiz. Biza yangi avlod kerak, degan. O'shanda 15 ta o'ringa 780 ta odam da'voglarik qilgandik. Omadim kelib o'qishga kirib ketdim. U yerda katta-katta ustozlar qo'lida saboq oldim. O'shandayoq men o'zimga hayotda katta maqsadlar bilan yashashga so'z bergandim. Meni hayotdagi eng katta ozig'im-kitob, bilim bo'lgan. Meni pedagog sifatida kashf qilgan inson – Aleksandr Ginzburg bo'ladi. Bundan tashqari, u kishi menga yana bir katta yaxshilik qilganlar. Moskvada-Oliy rejissorlik kursida o'qib yurGANimda meni "Aravgi" degan gruzin restoraniga olib borib Georgiy ToVstanovgan degan buyuk rejissory bilan tanishtirgan. ToVstanovga meni "Filippinlik va mast" degan diplom kartinam yoqib qolgan ekan. U kishi esa o'zlarining teatrda Yuriy Rest ism-sharifli bir juhud odam borligini, u kishi O'zbekistoni, o'zbeklarni juda yaxshi ko'rishini, o'sha kishi bilan hamkorlikda biror-bir ijodiy ish qilishim mumkinligini aytildilar. Men Rest bilan tanishgach, uni poyezdda Toshkentga olib keldim. U odam urush paytda Toshkentga evakuatsiya qilingan, o'zbeklardan katta mehr ko'rgani uchun ham xalqimizga hurmati juda baland ekan. "Mahallada duv-duv gap" sahnasini ham xalqimiz oldidagi qarzini uzish uchun yozganlar.

Ssenariyo yozilishi haqida gapirsam, mavzu o'ylay-o'ylay qachonlardir bir gazetada kelin bilan qaynonaning kelishmovchiligi haqida o'qigan maqolam esimga tushdi va o'shani kengaytirib, kerak bo'lsa sal bo'rttirib, badiylashtirib ssenariyo yozishga tushdi. Tinch hayot tarziga o'rgangan katta yoshli odamlar bilan shiddat bilan yangilikka tilayotgan yoshlarning o'zarो



**Sherzod MUHAMMADIYEV,**  
O'zDSMI katta o'qituvchisi

Barchamizga ma'lumki yurtimizda azal-azaldan saqlanib kelinayotgan milliy qadriyatlarimiz, milliy merosimiz, xalq og'zaki ijodimiz bo'lgan "Alpomish", "Kuntug'mish", "Rustamxon", "Go'ro'g'li" kabi bitmas tunganmas dostonlarimiz bor. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq musiqali teatrda xuddi shunday dostonlardan biri bo'lgan "Qirq qiz" dostoni spektakli tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi. Ktakl shu ko'rinishga kelishi uchun avvalo, ssenaristning, dramaturgning ijodiy mahorati katta ahamiyatga ega.

## "Qirq qiz" spektakli

"Qirq qiz" dramasi, Qoraqalpoq iston xalq yozuvchisi, "Berdaq" nomidagi davlat mukofoti lauriati Kenesbay Allambergenovning mehnatiidir. Muallif yozgan asarni katta sahnada jontantirish, namoyon qilishda esa rejissorning xizmati e'tiborga molik. Odatda har bitta aktyor bilan ishslash, ularga o'z obrazlarini his qildirish, tomoshabinlarga nima demoqchiligin yetkazi olishi rejissordan ko'p mashhaqqat mas'uliyat talab etadi. Qoraqalpoq istondagi xizmat ko'rsatgan artist Marxaboy Usenov esa bosh qahramonlar u yoqda tursin yana 40 ta aktrisa bilan birgalikda ishslashni ularni sahnaga tayyorlashni ijob mahoratlarini yuksaltirishni uddalay oldi. Shuningdek, barcha aktyor va aktrisalar, sahna dekaratsiyalarini yaratgani rassom va kastyumyollar, chiroq ustalari, grimyollar, umuman olganda, teatr jamoasi o'z vazifalariga chin ko'ngildan yondasha olnaligini uchun spektakl tomoshabinlar tomonidan a'lo baholandi, e'tirof etildi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal, deganlaridek o'zim xohangandek, tarixiy va milliy asarlarimizni ko'rishlik nasib etdi. Qoraqalpoq xalqi juda ijodkor, san'atsevar xalq, ularning san'atini madaniyatini yana ham chiqurroq anglashimiz lozim ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim. Ulardagi kuch va shijoat, g'ayrat har bir kuzatuvchini diqqatini tortadi. Teatrda sahnalashtiriladigan har bitta

asar asosida teran fikirlar, mazmun mohiyat, estetik did va ijodkor qalbi, mahorati aks etadi.

Shuningdek, "Qirq qiz" dostonidagi Allayarbiy obrazi xalqqa fidoyilik, adolatlik timsolini gavdalantirgan O'zbekiston xalq artisti B. Uzaqbergenov ijrolari olqishlarga sazovordir. Allayarbiyning qizi ya'ni Gulayim obrazi esa biz yoshlar uchun, ayniqsa, qizlarimiz uchun kuch-g'ayrat, shijoat, mardlik, jasorat, qattiyatilik kabi mardonavor tuyg'ularini tarannum etadi. Asosiy qahramonni yoritib bera olgan G. Abatbayeva va yigitlarimiz uchun ayni muddao bo'lgan Arslan obrazini yarata olgan A. Nazarimbetov ham o'z rollarini ishonrali ijro etdilar. Muhtaram Prezidentimizning "Teatr insonlar uchun tomoshabinlar uchun nafaqat zavq-u shavq bag'ishlashi balki ularning qalbida aql-zakovat, ilm-tafakkur faxr, iftixon Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ularini yanada mustahkam qilib shakllantira olishligi zarur", degan so'zlar har bir teatr jamoasi uchun shiyor bo'lishligi, "Qirq qiz" spektaklli va shu kabi tarixiy asarlarini, sahnaga, ekran yuziga olib chiqishdan charchamasliklarini istayman shu bilan birgalikda Berdaq teatri jamoasiga o'z minnatdorchiligidagini izhor etaman!

Nozima ULUG'JAVA,  
O'zDSMI Nukus filiali  
2-bosqich talabasi

Tinchlik uchun aytilgan ko'p bor, Salovotu duo-yu, tasbeh.

O'zbek degan diyor bormi deb So'rab ko'ring har bitta jondan, Dadil, burro tillari bilan, Derlar bizlar, O'zbekistondan!

Men ham bugun tanitdim o'zni, Zilolaman, O'zbekistondan!

## Yomg'ir simfoniyasi

Yomg'ir savalaydi daraxt barglarin,

Tomchiga aylansam deyman o'y surib.

Yutib yubormoqda dunyo ayblarin,

Jim kuzatayman piyoda yurib.

### Soyabon.

u to'sar, yovuzliklardan.

Xapqirib yuragim istaydi nedir.

Tomchilar aksida ko'rinar qarang,

Shaffosdek tovlanib jilmayib kimdir...

Bosh uzra tomchilar, rahmat yomg'iri,

Ular qo'shig'ini tinglasam, ajib...

Baxtdan darak ekan tushlar ta'biri,

Chug'urlab har shoxga, qo'nishar, uchib...

Hislardan o'zimni jilovlab arang,

Borliqqa suglanib boqar ko'zlarim.

Yomg'ir, ko'z yoshlardan, yaralgan demang,

Hayqirib chiqadi unsiz so'zlarim.

### Bekat.

O'rindiq bo'sh,

Namli soyabon!

Bugun har qachondan baxtliman, Ona.

Tabiat o'tkazur men-la imtihon,

Tun chirmalib ko'zin, suzar, mastona...

Tozalar yuragim, ohorli borliq,

Yomg'irlar yozdim sho'x joriyasi.

Kuzdan estalikka qoldirib yorlig,

Yaraldi yomg'irning simfoniyasi...

Zilolabon XOLIQOVA,  
O'zDSMI, "San'at va madaniyat muassasalarini tashkil qilish hamda boshqarish" yo'naliishi 2-bosqich

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi. O'lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq.

Nusxasi – 319 dona. Narxi kelishilgan narxda.

Chop etishga 28.01.2022-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO/POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oqota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz – 1.

**Tahrir hay'ati:**

Sobirjon JUMAYEV

Ma'rufjon YO'LDOSHEV

Rashid USNATOV

Jumagul NISHONOVA

Mas'ul kotib:

Anvar QOBILOV

**Tahririyat manzili:** 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yangal'och mavzlesi, 127 A uy.

**Telefon:** (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.

[www.dsni.uz;](http://www.dsni.uz)

[nashriyot@dsni.uz](mailto:nashriyot@dsni.uz)

**Sahifalovchi:**

Abdug'ani SODIQOV

**Muassis:**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Eldor SHERMANOV